

DOKDO/TAKESHIMA MASALASINING YAPONIYA VA JANUBIY KOREYA MUNOSABATLARIGA TA'SIRI

Ergasheva Nozima

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Zebiniso Zaripova

Siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yaponiya va Janubiy Koreya o‘rtasidagi Dokdo/Takeshima orollari bilan bog‘liq hududiy nizo tahlil qilinadi. Maqolada mojaroning yuzaga kelish sabablari sifatida tarixiy da‘volar, hududiy suverenitet masalalari tarixiy va huquqiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Orollarning strategik-geografik joylashuvi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu masalani qanday hal etish imkoniyatlari, reja va istiqbollar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Dokdo/Takeshima orollari, Takeshima kuni, hududiy shartnoma, Qohira deklaratsiyasi, San-Fransisko tinchlik shartnomasi.

KIRISH

Jahon siyosiy sahnasida ro‘y berayotgan voqea-hodisalar shiddati, xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar va mamlakatlar o‘rtasida kuchayib borayotgan ishonchsizlik inqirozi davlatlararo bahsli masalalar, ayniqsa, hududiy-chegaraviy muammolarni chuqur tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya o‘rtasidagi munosabatlar Sharqiy Osiyodagi eng muhim va ayni paytda eng murakkab ikki tomonlama aloqalardan biridir. Ikki davlat iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida yaqin hamkor bo‘lsa-da, tarixiy tajriba va o‘tmish bilan bog‘liq masalalar ularning munosabatlariga doimiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Ayniqsa, mustamlakachilik davrida yuzaga kelgan muammolar va hududiy bahslar o‘zaro ishonchning to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

XX asr boshlarida Koreya yarimorolining Yaponiya tomonidan bosib olinishi koreyslar va yaponlar o‘rtasidagi aloqalarda chuqur salbiy iz qoldirdi. Bu davr Koreya uchun siyosiy va madaniy yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘lib, hudud va suverenitet masalalariga nisbatan keskin munosabat shakllanishiga olib keldi. Mustamlaka davrida qabul qilingan ayrim qarorlar bugungi kunda ham Yaponiya va Janubiy Koreya o‘rtasidagi bahslarning asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunonchi, munosabatlardagi keskinlik nuqtasi orol mojarosi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hududiy bahs Yaponiya va Janubiy Koreya o‘rtasidagi ikki tomonlama

munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Xususan, orollar masalasi ayrim davrlarda siyosiy muloqotning susayishiga, o'zaro ishonchning zaiflashishiga va jamoatchilik fikrida qarama-qarshi kayfiyatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Natijada, hududiy kelishmovchiliklar nafaqat xavfsizlik sohasida, balki iqtisodiy va diplomatik aloqalar rivojiga ham ma'lum darajada to'sqinlik qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi Dokdo/Takeshima orollari bo'yicha hududiy mojaro ikki davlat o'rtasida uzoq vaqtdan ber davom etib kelayotgan va siyosiy jihatdan muhim nizolardan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan bo'lib, xususan, taniqli koreys siyosatshunosi, professor Sung Deuk Hahm va professor Uk Heo tomonidan hammualliflikda yozilgan "Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorlik va hududiy nizolar" maqolasida Dokdo/Takeshima nizosini faqat ikki tomonlama hududiy tortishuv sifatida emas, balki kengroq siyosiy kontekstda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, siyosiy fanlar doktori, dotsent Suhrob Bo'ronov o'zining "Sharq: xavfsizlik va barqaror taraqqiyot muammolari" nomli kitobida bu mojaroning kelib chiqish sabablari va tarixiy da'volari haqida qayd etgan.

Indoneziyada inson huquqlari masalalari bo'yicha mutaxassis Olivia Tasevski tomonidan yozilgan "Yaponiya-Janubiy Koreya munosabatlarida bahsli orollar muammosi" nomli maqolada Dokdo/Takeshima deb ataladigan kichik orollar atrofidagi tortishuvni Tokio va Seul munosabatlarining markaziy muammosi sifatida ko'rsatiladi. Maqola bo'yicha bu hududdagi tortishuv ikki mamlakat o'rtasidagi tarixiy xotira, milliy g'urur va siyosiy munosabatlarni og'irlashtiruvchi asosiy manba hisoblanadi.

NATIJALAR

Ma'lumki, Dokdo/Takeshima hududiy nizosi Janubiy Koreya va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Dokdo (koreys tilidan – "Tanho") va Takeshima (yapon tilidan – "Bambuk") — Koreya yarimorolidan 217 km, Yaponiyadan 250 km uzoqlikda Yaponiya dengizining g'arbiy qismida joylashgan, ikkita kichik orol va ularni o'rab turgan qoyalardan iborat orollar guruhi hisoblanadi. Ushbu orollar geografik jihatda kichik va doimiy yashash uchun yaroqsiz bo'lsa-da, baliqchilik resurslari hamda neft va gaz zaxiralari mavjudligi sababli strategik ahamiyatga ega. 1965-yildan buyon mazkur orolni 37 nafar Janubiy Koreya politsiyachilari qo'riqlab keladi [1]. Bu esa Seul tomonidan hudud ustidan de-fakto nazorat mavjudligini ko'rsatadi.

1-rasm



Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi bahsli hudud hisoblangan Dokdo/Takeshima orollari[2]

Qolaversa, bu yerda Janubiy Koreya Baliqchilik va dengiz xo'jaligi vazirligining 3 nafar vakili doimiy ravishda faoliyat yuritadi. Bu mojaro faqatgina hududning geografik imkoniyatlari bilan o'lganibgina qolmasdan, balki davlatlarning tarixiy xotira va milliy manfaatlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Qayd etish joizki, mazkur mummoning asl ildizlarini tahlil qilishda uni tarixiy va huquqiy yondashuvlar asosida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

Tarixiy yondashuv. Bu muammoning tarixiy ildizlari shuni ko'rsatmoqdaki, Janubiy Koreya da'volariga ko'ra, Dokto/Takeshima ilk bor 512-yilda Silla sulolasi hukmdori Chi Jung Vang tomonidan zabt etilgan bo'lib, bu voqea Koreyaning eng qadimgi tarixiy manbasi — 1145-yilda nashr etilgan Samguk Sagi ("Uch qirollik solnomasi") asarida qayd etilgan. Keyinchalik, 1696-yilda yapon baliqchilariga ushbu hududda faoliyat yuritish taqiqlagan bo'lib, bu holat orollarning Koreya hududi sifatida tan olinganini ko'rsatadi. Shu sababli Seul Dokdo ustidan hech qanday hududiy nizo bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Biroq Tokio da'volarida XVII asrda yapon oilalari Dokto/Takeshima atrofida baliqchilik faoliyati bilan shug'ullangan davrdan o'ziga tegishli ekanligini ilgari suradi.

Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, Dokdo/Takeshima 1905-yilda rasmiy ravishda Yaponiya hududiga qo'shib olingan. Yaponiya bu hududni *terra nullius* (egasiz hudud) deb hisoblagan [3]. 1905-yildagi qarorga Koreya tomonidan rasmiy e'tiroz bildirilmaganini asos qilib, Tokio bugungi kunda Janubiy Koreyaning orollar ustidan nazoratini noqonuniy deb baholaydi.

Koreya mustaqil davlat sifatida tan olinganidan so'ng bu hududni davlatning ajralmas bir qismi sifatida e'tirof etadi. 1950- yillarda Dokdo/Takeshima hududida Tokio va Seulning oz sonli harbiy kuchlari o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Bundan tashqari, 1996-yilga kelib bu bahsli masala yana qayta ko'tariladi, ya'ni Janubiy Koreya tomonidan orolda kemalar bandargohini qurishga qaror qabul qilinganidan keyin kuchayib ketdi [1]. Bu hudud bo'yicha tortishuvlar uzilib-uzilib bo'lsa ham hozirgacha davom etib kelmoqda. Keyingi yillarda, xususan, 2005-yil 22-fevralda Shimane viloyatida "Takeshima kuni" e'lon qilinishi esa nizoni yana keskinlashtiradi. 2012-yil avgustida Janubiy Koreya Prezidenti Li Myong Bakning Dokdo/Takeshimaga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi diplomatik taranglikni yanada kuchaytiradi. Shuningdek, 2013–2015-yillarda Janubiy Koreya orolda infratuzilma, ekologik monitoring hamda ta'lim va muzey loyihalarini amalga oshira boshlaydi. 2018-yilda Janubiy Koreya armiyasi Dokdo/Takeshima atrofida harbiy mashg'ulotlar o'tkazadi, 2019–2020-yillarda esa Yaponiya "Takeshima kuni" orqali o'z suverenitet da'vosini muntazam ravishda yangilab keladi. 2021-yilda Tokio Olimpiadasi oldidan Yaponiya xaritalarida Dokdo/Takeshimaning yapon hududi sifatida ko'rsatilishi yana keskin diplomatik bahslarni keltirib chiqaradi. 2022–2024-yillar davomida Janubiy Koreya orollar atrofida harbiy va diplomatik faollikni oshiradi. Bu xronologik voqealar shuni ko'rsatadiki, boshda hududiy mojarolardan farqli ravishda bu tortishuv keskin alangalanib ham, butkul hal bo'lib ham ketmaydi. Mojaroning davomiyligi ikki davlat munosabatlariga taranglik muhitini olib kirgan va buni davom ettirmoqda.

Huquqiy yondashuv. Xalqaro huquq davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar, konvensiyalar, xalqaro tashkilotlar nizomlari va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Chunonchi, davlatlar o'rtasidagi shartnomalar turli vazifalarni bajaradi. Shartnoma siyosiy, iqtisodiy, harbiy (ya'ni mudofaa ittifoqlari), madaniy yoki ilmiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Qolaversa, "hududiy shartnomalar" deb ataladigan yana bir shartnoma turi ham mavjud. Hududiy shartnoma tomonlarning hududlariga ta'sir ko'rsatadi, masalan, hududiy chegarani belgilaydi, hududning bir qismiga egalik huquqini o'tkazadi, hududni bo'ladi yoki undan voz kechadi [4]. Xususan, bu mojaroni hal etishda keltiriladigan 1943-yilgi Qohira deklaratsiyasida Yaponiya kuch ishlatish orqali qo'lga kiritgan hududlarini qaytarishi lozimligi ta'kidlangan bo'lsa, 1945-yildagi Potsdam deklaratsiyasi esa buni yana bir bor tasdiqlab, "Yaponiya suvereniteti Honsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku va biz belgilaydigan boshqa kichik orollar bilan cheklanadi" [5], deb qayd etilgan. Lekin Dokdo/Takeshima aynan Koreyaga tegishli ekanligi keltirilmagan. 1946-yilda AQSh va SSSR Ittifoqchi kuchlarning Oliy qo'mondoni tomonidan ko'rsatma-memorandum e'lon qilingan

bo'lib, unda Dokdo/Takeshima Yaponiya hududlari ro'yxatiga kiritilmagan. Shu bilan birga, hujjatda "ushbu direktivadagi hech narsa ittifoqchilarning kichik orollarning yakuniy maqomini belgilashga doir siyosatini anglatmaydi" [6], deb qayd etilgan. O'sha paytda e'tiborsiz qoldirilgan bu hudud hozirgi kunga kelib ziddiyat markaziga aylandi. 1946-yilning oxirida AQSh istilochi ma'muriyati SCAPIN 1033 hujjatini chiqardi, unda "yapon kemalari yoki ularning ekipajlari Dokdo/Takeshimaga o'n ikki milyadan yaqinlashmasligi hamda ushbu orol bilan hech qanday aloqada bo'lmasligi lozim" [7], deb belgilangan. Lekin bu hujjat ham orollarning qaysi tomonga tegishli ekanligini to'liq tasdiqlay olmagan.

Lekin Yaponiya o'z pozitsiyasini mustahkamlash uchun AQSh istilochi ma'muriyatiga faol tarzda bosim o'tkazgan. 1947-yil sentabr oyida Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi "Yaponiya dengizidagi kichik orollar" nomli monografiyani taqdim etdi, keyinchalik bu hujjat AQSh Davlat departamenti rasmiylariga yuborildi. Unda Yaponiya Dokdo/Takeshima ustidan suverenitet da'vosini ilgari surgan [8]. Janubiy Koreya hukumati esa buni e'tiborsiz qoldirib, Vashingtonga bosim o'tkazmagan. 1951-yildagi San-Fransisko tinchlik shartnomasi Dokdo/Takeshima nizosini yanada murakkablashtirdi, chunki shartnomaning turli loyihalarida orollar maqomi turlicha ifodalangan edi. 1949-yil noyabriga qadar tayyorlangan dastlabki loyihalarda Dokdo/Takeshima Koreya hududi sifatida ko'rsatilgan. Biroq shartnomaning yakuniy matnida orol tilga olinmagan va unda Yaponiya Koreyaning mustaqilligini tan olib, Chejudo, Komundo va Ulleungdo orollarini o'z ichiga olgan holda Koreyaga nisbatan barcha huquq, mulk va da'volardan voz kechishi ta'kidlangan [9]." Bu masala bo'yicha tarixiy dalillar shuni ko'rsatadiki, shu paytgacha ikkala davlat o'rtasida orollar bo'yicha suverenitetni aniq belgilovchi maxsus hududiy shartnoma qabul qilinmagan va bu bahs hozirga qadar saqlanib qolmoqda.

Shuningdek, ikkala davlat ham bu masalani xalqaro sud minbariga olib chiqishda ikki xil pozitsiyaga ega. Buning ayrim sabablari mavjud bo'lib, xususan Janubiy Koreya uchun bu hudud faqatgina geografik omil bilan o'lchanibgina qolmasdan, davlatning milliy faxr va tarixiy o'zlik ramzi sifatida ko'riladi va bu hududdan voz kechish davlat milliy manfaatlari uchun zid deb e'tirof etiladi [10]. Yaponiya pozitsiyasiga keladigan bo'lsak, bu hududga bo'lgan da'vodan voz kechish Tokioning boshqa davlatlar, jumladan, Xitoy bilan Senkakyu deb nomlangan orol ustida, Rossiya bilan esa Kuril orollari ustida olib borayotgan hududiy da'volarini zaiflashtirishi mumkin. Shu jumladan, ikkala davlat ham mintaqadagi boshqa umumiy manfaatlar, Shimoliy Koreyaning yadroviy xavfi va Xitoy ta'sirining mintaqada kengayishi, qolaversa, Tokio-Vashington-Seul uchburchagi omili sababli bu masalani alanga oldirib yuborishdan manfaatdor emas. Ayni paytda bu bahsli

masalaning vaqti-vaqti bilan ko'tarilib turishi mintaqaviy xavfsizlik masalasini ham o'rtaga chiqaradi. Bu kabi kichikdek ko'ringan muammolarning mavjud ekanligi Sharqiy Osiyo mintaqasidagi barqarorlikka va davlatlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlariga jiddiy g'ov bo'luvchi omillardan biridir.

Bu masalani hal qilishda turli xil fikr va mulohazalar mavjuddir. Yaqin kelajakda Dokdo/Takeshima hududiy nizosining amaldagi holatda saqlanib qolishi eng haqiqatga yaqin ehtimollardan biridir. Chunki hozirda Janubiy Koreyaning orollar ustidan de-fakto nazoratining mavjudligi hamda Yaponiya tomonidan da'volarning asosan diplomatik va huquqiy bayonotlar darajasida olib borilishi mojaroning keskinlashib ketishini cheklamoqda [11]. Albatta, bunday vaziyatda tomonlar siyosiy jihatdan nisbatan xavfsiz bo'lib to'qnashuv darajasi past bo'ladi. Bundan tashqari, tashqi omillar, xususan Kareya yarimorolida xavfsizlik tahdidlarining saqlanib qolishi, Xitoyning mintaqadagi faoliyati va AQShning ittifoqchilik siyosati Dokdo/Takeshima masalasining vaqti-vaqti bilan kun tartibiga qaytishiga zamin yaratishi mumkin. Bundan tashqari, agar AQSh ikkala davlat uchun yaqin ittifoqchilik maqomidan foydalanib ularni muammoni hal etishga undasa yoki bosim o'tkazish usulidan foydalansa, bu masala hal etilish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli istiqbolda esa iqtisodiy o'zaro bog'liqlik, mintaqaviy barqarorlikka bo'lgan ehtiyoj va umumiy xavfsizlik manfaatlari Dokdo/Takeshima masalasini bevosita hal etmasdan turib, uning atrofida cheklangan amaliy hamkorlik shakllarining paydo bo'lishiga olib kelishi ehtimolini vujudga keltiradi. Bu eng avvalo ikki tomon o'rtasida orollar ustidan huquqiy maqomga ega bo'lishini kafolatlovchi hududiy shartnomaning yaratilishi, keyingi o'rinlarda esa baliqchilik faoliyatini muvofiqlashtirish, ekologik monitoring yoki inqirozlarni boshqarish mexanizmlarini yaratish orqali muammoni hal etish ehtimoldan xoli emas. Shunga o'xshash muammo sifatida Fransiya va Ispaniya o'rtasidagi Pazant orolini keltirish mumkin. Pazant oroli — bu juda kichik, aholisiz orol Fransiya va Ispaniya chegarasidagi Bidasoa daryosi o'rtasida joylashgan. Bu hududni ikki davlat birga boshqaradi, lekin navbatma-navbat egalik qiladi. Bu holat xalqaro huquqda *kondominium* deb ataladi — ya'ni bir necha davlatlarning birgalikdagi suvereniteti (egasi) bo'lgan hudud. Qiziq tomoni shundaki, bu yerda davlatlar birgalikda emas, balki navbat bilan boshqaradilar [12]. Xuddi shu kabi yechimdan Janubiy Koreya va Yaponiya masalasida ham qo'llansa bu muammo samarali yechimga ega bo'lishi mumkin.

XULOSA

Umuman, Yaponiya va Janubiy Koreya oʻrtasidagi Dokdo/Takeshima hududiy muammosi oʻz koʻlami va murakkabligi jihatidan ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlar uchun, balki Sharqiy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik uchun ham sezilarli ahamiyatga ega. Davlar oʻrtasidagi hududiy muammoni asosan, tarixiy va huquqiy yondashuvlar asosida koʻrib chiqish ushbu masalani chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Mazkur nizo tarixiy daʼvolar, milliy suverenitet, shuningdek, strategik resurslarga boʻlgan daʼvolar bilan uzviy bogʻlangan boʻlib, ikki davlatning diplomatik faoliyatini doimiy ravishda taʼsir ostida ushlab turadi. Hududiy mojaroning vaqti-vaqti bilan qayta koʻtarilishi ikki tomonlama siyosiy keskinliklarni kuchaytiradi va mintaqada beqarorlik muhitining shakllanishiga zamin yaratadi. Bu holat davlatlar oʻrtasidagi ishonch muhitining zaiflashishiga olib kelib, iqtisodiy hamkorlik va xavfsizlik sohasidagi kelishuvlarni murakkablashtiradi. Shu tufayli Dokdo/Takeshima masalasining siyosiy muzokaralar orqali hal etilishi nafaqat yapon va koreys xalqining, balki Uzoq Sharq mintaqasi taraqqiyoti va barqarorligini taʼminlash garovi boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Boʻronov S. (2025). Sharq: xavfsizlik va barqaror taraqqiyot muammolari. Pir nashr
2. Bermuda T. (2018, September 27). South Korea craves foreign approval of its claim to two tiny rocks. The Economist. Retrieved from <https://www.economist.com/asia/2018/09/27/south-korea-craves-foreign-approval-of-its-claim-to-two-tiny-rocks>
3. Hahm S. (2019). History and territorial disputes: Domestic politics and international relations-An analysis of the relationship among South Korea, China, and Japan. Asian Perspective, 43(3), 381–412. <https://doi.org/10.1353/apr.2019.0012>
4. Rahimov S. (2025). Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasidagi xavfsizlik masalalarida “Dyurand chizigʻi” ning taʼsiri. Toshkent
5. Potsdam Declaration (1945). United States. Retrieved from <http://international.ucla.edu/eas/documents/Potsdam.htm>
6. Supreme Commander for the Allied Powers (SCAP). (1946, January 29). SCAPIN No. 677. Retrieved from http://www.mofa.go.jp/mofaj/area/takeshima/pdfs/g_taisengo01.pdf
7. Supreme Commander for the Allied Powers (SCAP). (1946, June 23). SCAPIN No. 1033. Retrieved from http://www.mofa.go.jp/mofaj/area/takeshima/pdfs/g_taisengo02.pdf

8. Lovmo M. (n.d.). The United States' involvement with Dokdo Island (Liancourt Rocks): A timeline of the occupation and Korean War era. Retrieved from <http://dokdo-research.com/page9.html>
9. Treaty of Peace with Japan (1951), entered into force April 29, 1952 United States.. Retrieved from <http://www.international.ucla.edu/eas/documents/peace1951.htm>
10. Bermuda T. (2022, May 12). Islands of ire: South Korea–Japan dispute. Lowy Institute. Retrieved from <https://www.lowyinstitute.org/the-interpreter/islands-ire-south-korea-japan-dispute>
11. Kim S., Glosserman B. (2014). The Japan–South Korea Identity Clash. Columbia University Press.
12. Minder, R. (2017, July 31). The island jointly governed by Spain and France.
13. ElPaís.
https://english.elpais.com/elpais/2017/07/31/inenglish/1501506792_042315.html